



FAQAT NAZARIYA YETARLIMIKAN?

Shokirxonova E'zozaxon Zafarxon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Koreys filologiyasi kafedrası. 3-kurs talabasi,

shokirxonovaezozaxon@gmail.com Tel: +998908152827

Yurtimiz hududida barcha fuqorolar ta'lim tizimini an'anaviy tarzda amalga oshiradi. Maktablarda o'nlab fanlar yillik o'quvchilarga o'rgatilishi kerak bo'lgan rejaga qo'shiladi. Ustoz sinfxonaga kiradi. Fanlarga doir kitoblar asosidan sakson foiz darsni nazariya orqali tushuntiradi va so'rab oladi. Maktab yoshidagi bolalarning ta'lim olish jarayoni II yil huddi mana shunday davom etadi. Oliy ta'lim ham bundan farq qilmagan holda, talabalar deyarli bilim va ko'nikmalarini oltmish foiz nazariya bilan boyitib boradi. To'g'ri oliy ta'limda so'nggi yillar oralig'ida amalyotga tadbiiq qilish kuchaytirib borilmoqda. Lekin talabalar buncha ko'p fandan olgan nazariyalarini qay birini amalyotta qo'llab ulguradi? Yevropa mamlakatlari va ba'zi bir sharq mamlakatlari an'anaviy usuldan allaqachon voz kechishgan. Ular bu metodni eskirgan deb bilishadi. Ho'sh unda ular qanday ta'lim tizimida? Tasavvur qiling maktabda dars jarayoni ketmoqda. Bir sinfda atigi sakkiz nafar bola ta'lim oladi. Ularning kunlik dars jadvallari mavjud emas. Ular ta'lim olayotgan sinflarida hammamizga tanish bo'lgan tabiiy, aniq va gumanitar fanlar yo'q. Ular uchun, yil boshida faqatgina topshiriq beriladi. Misol tariqasida har bir bola chorak oxirida pishloq tayyorlab kelish vazifasini oladi. Dars mashg'ulotlari bo'lmaydimi? Ular o'zlari yakka tarzda, mustaqil o'rganib vazifani bajaradimi? Bunga o'xshash savollar tug'ilishi tabiiy. Yo'q o'quvchilar doim ustozlar nazorati ostida topshiriqni bajaradi. Haftaning birinchi kuni bir ustoz sinfga kiradi. Bugun biz sizlar bilan pishloq qanday mahsulotdan tayyorlanishini o'rganamiz deydi. Ikkinchi kuni boshqa Muallim kirib pishloq tarkibi qanday moddalardan tashkil topishini o'rgatadi. Uchinchi kuni yana bir o'qituvchi kirib, pishloq tarkibidagi sut nimadan olinishini firmaga olib borib tushuntiradi. Bolalar firmada sigirlar qanday boqilishini, qanday o'simlik bilan ozuqlansa, ularning sutlari yaxshi va yomon bo'lishini o'rganadi. Bundan tashqari bolalar sigirilarini o'zlari ozuqlantirib, sut olish(ya'ni sutni sog'ish) jarayonini o'z qo'llari bilan bajararib ko'radi. Chorak oxirida hamma to'plangan bilimlar asosida o'quvchilar pishloq tayyorlab keladi. Tayyorlangan mahsulotning sifatiga qarab baholanadi. Siz bu qanday ta'lim bo'ldiki, umuman fanlar o'rgatilmaydigan deyishingiz mumkin. Bolalarga bugun fizika, biologiya, matematika darsi deyilmasdan aynan pishloq tayyorlash paytida bu fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar berildi. Chorak oxirida tayyorlangan va baholangan pishloqlarni bo'lsa bolalar bozorga olib chiqib sotadi. Ular yoshlik paytidanoq bozor iqtisodiyoti va biznes ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Chetdan olib qaralsa bu jarayon ajoyib. Faqatgina o'zining sohasiga yo'naltirilgan o'quvchi kelajakda o'z kasbining ustasi sifatida davlatga yetarlicha foyda keltira oladi. Ular sohasiga doir bo'lmagan fanlardan ilm olmaydi. Ularning bilim olish chegaralari qiziqqan sohalari kesimida bo'ladi. Bu ham ajoyib. Bolalar birdaniga ko'plab fanlarni, bir vaqtda o'zlashtirish ma'sulyatidan yiroq. Ular businessmenmi, iqtisodchimi, aktyormi, oshpazmi yoki muallim qiziqsa faqat shu yo'nilish bilimlarini chuqur egallaydi. Ushbu ta'lim, STEAM(science,



technology, engineering, art, math) ta'lim tizimi deb ataladi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amalyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqatgina sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. Endi biz olayotgan ta'lim tizimimiz qay darajada manfaatli? An'anviy tizimning ham o'ziga xos bo'lgan jihatlari bor. Bola cheklangan dunyoda yashaymaydi. To'g'ri barcha fanlarni mukammal egallay olmasligi mumkin. Ammo o'quvchining ong ostida dunyoning asl ko'rinishi haqidagi ma'lumotlar shakllanadi. Kelajak kasblari san'atkor bo'lsa ham, ularga fizika yoki tarix haqida savol berilsa qiynalmasdan javob topa oladi. Yevropacha ta'lim olgan o'quvchi bo'lsa faqatgina san'at bo'yicha savollarga javob bera oladi. Chunki ularda fizika yoki tarix haqida aqalli tushuncha ham yo'q. O'ylab qaralsa, faqatgina nazariya kelajakda amalyot qismiga o'tganda, tajriba yo'qligini, ba'zi jabhalarda isbot qiladi. Mukammal amalyot bo'lsa, bir qobiq asosida qilingan, ammo soha bo'yicha hech qanday kamchiliklarni yuzaga keltirib chiqarmaydi. Yurtimizda aynan STEAM ta'lini yo'lga qo'yilsa qanday bo'larkin? Biz o'ylab ko'raylik degan chog'imizda yurtimiz hududi bu tizimni allaqachon amalda qo'llab ko'rganini bilamiz. Bir sinf bolalarini huddi shunday yarim yil STEAM ta'limida o'qitishdi. Ammo bu ko'zlangan natijani bermadi. Chunki amalyot uchun ko'proq mablag' sarf etiladi. Bolalarni kerakli joyga olib borish uchun maxsus avtomobil, amalyot uchun kerakli jihozlar, hamda kerakli manzillar, hammasi uchun mablag' kerak. Bu chiqimlar davlat tomonidan qoblab berilmadi. Bu bo'lsa ota-onalarga qimmatga tushib ketti. Hamda bus inf o'quvchilari yarim yilga bormay tarqalib ketti. O'z-o'zidan yevropadagi ota-onalar qanday farzandlarini ta'lim olishlarini ta'minlab bermoqda ekan deb o'ylab qolamiz. Yevropada barcha harajatlar davlat tomonidan butunlay qoplanadi. Bu fuqorolar uchun eng quvonarli holat. Lekin so'ggi o'n yilda aynan mana shu ta'lim berish sohasiga ajratilgan pullar evaziga davlat iqtisodiy inqirozi yaqin ekanligi ma'lum qilingan. O'ylab ko'ringga davlat bujetining qancha qismi aynan ta'lim jarayoniga sarf etilishini. Axir yevropadagi davlat hududi kengligi va fuqorolar soni ko'pligi bizning davlat bilan solishtirganda anchalik yuqoriligini. O'z o'rnida yurtimizning iqtisodiy ahvoli birdaniga bu ta'lim jarayoniga o'tishga hali tayyor emas deb o'ylaymiz. Davlatimiz bizga uni yaratib bermayabdi, buni yaratib bermayabdi deyishlikka shoshilmaylik. Har bir ishda hikmat bor. Insonda xohish bor ekan berilgan imkoniyatlarning eng yuqori darajasigacha foydalanib, rivoj topishi mumkin. Axir tarixdagi buyuk allomalarda nazariyani ham beruvchilar bo'lmagan. Ular o'zlarining tirishqoqliklari va intiluvchanliklari bois tarix zar varoqlarida o'chmas iz qoldirishga musharraf bo'ldi.

Fikrimizni xulosalar ekanmiz, faqat nazariya yetarli emas. Shu bilan birgalikda, faqat amalyotning o'zi ham kamchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Har narsada meyor bo'lishga targ'ib qilgan xalqimiz o'gitidan chetga chiqmagan holda, ilm darajamizni nazariya asosida tez-tez amalyotda sinab ko'rishimiz kerak.